

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI**

**«UMUMIY PEDAGOGIKA» FANIDAN**

**«O'quvchilarning aqliy tarbiyasi»**

**MAVZUSIDAGI**

# REFERAT

**Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi X.Xomidov**

**Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov**

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

**Kafedra mudiri:**

**dots. A.Abdumannotov**

Kurs ishi kafedraning 2013-yil \_\_\_ iyunda bo'lib o'tgan \_\_\_-sonli majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_\_ foizga baholandi

**Komissiya raisi:** \_\_\_\_\_

**A'zolari:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**SAMARQAND – 2013**

## **REJA**

### **KIRISH**

### **ASOSIY QISM**

1. O'quvchilar aqliy tarbiyasining mohiyati va mazmuni
2. Kichik maktab o'quvchilarining o'qish faoliyati.
3. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati.
4. O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning shakl, metod va vositalari.

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O`sb kelayotgan yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish hamma davrlarda bo`lgani kabi, hozir ham millatning ilg`or kishilari diqat markazida bo`lib kelmoqda.

Xo`sh, dunyoqarashni o`zini qanday tushunish kerak? Dunyoqarash-bizni o`rab olgan borliq nima, u qanday rivojlangan, tabiatda qanday inson o`rin tutadi, uning ongi qanday paydo bo`ldi va kamol topdi, jamiyatning yaralish tarixi qanday, inosniyat turmush darajasini qanday qilib yaxshilash mumkin va shu kabi masalalarga kishilarning turlicha qarashlari, munosabatlaridir. Inson o`z faoliyatida ma`lum ilmiy bilimlardan, qonuniyatlardan, tushuncha va g`oyalardan foydalanadi. Ana shu bilimlarga asoslanib, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hodisalarini baholaydi, ularni o`ziga talqin etib, ma`lum xulosalarga keladi.

Har qanday odam o`zining yashashdan maqsadi nimaligini, hayotning ma`nosini bilishga intiladi. Bu insonning ijtimoiy ehtiyojidir. Ana shu ehtiyoj o`quvchiga ham xos bo`lib, u o`zining shu ehtiyojini qondirish bilan tevarak-atrof hayoti to`g`risida bilimlarga, tabiat va jamiyat haqidagi mulohazalarga ega bo`la boshlaydi. Umuman shaxsning turli xil ehtiyojlari uning faolligini ta`minlaydi, qiziqishlari, mayl va talablarini belgilaydi. Ana shu ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat shaxsning e`tiqod va qarashlari, kundalik xulq-atvor motivlarini hosil bo`lishiga yordam beradi.

Qarashlar va e`tiqodlar tizimi bo`lgan dunyoqarashning mohiyatidan shunday xulosa chiqarish kerakki, o`quvchining va umuman maktabning ishida muayyan tizim bo`lgandagina ilmiy dunyoqarash tarkib topishi mumkin. Asta-sekin to`plangan bilimlar yozma shaklda avlodlardan-avlodlarga qoladi. Turli davrlarda o`qimishli, ziyoli, bilimdon kishilar dunyo ilm-faniga, umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo`shganlar.

Ekspluatatsiyaga asoslangan quldorlik, feodalizm, kapitalizm kabi sinfiy jamiyatlarda davrning o`qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm-faniga, umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo`shganlar. Gippokrat, Demokrit, Platon, Arximed, Gegel, Marks, Engels; Sharqda ilk o`rta asrlarda

musulmon dunyosi al-Kindiy, ar-Roziy, G'azzoliy, Farobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Ibn Rushd (Averros), Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy shular jumlasidandir.

Kaykovusning "Qobusnoma", IV asrdagi hind faylasufi Beydaboning "Kalila va Dimna" asarlari, "Ramayana", "Maxabhorat" dostoni, Yusuf Xos Hojibning "qutadg'u bilig", Nosir Hisravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston va Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul qulub", Ahmad Donishning "O'g'illarga nasihat" bundan tashqari o'tmishning "Chor darvesh", "Ming bir kecha", "Qur'oni karim", "Hadisi sharif"dagi asarlarda ham juda katta, qimmatbaho va boy ma'naviy-madaniy meros bo'lib, sharq va g'arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo'lganlar.

Yosh avlodda ajdodlarimizga xos xususiyatlar va dunyoqarashni shakllantirish bevosita boshlang'ich ta'limda ularning aqliy tarbiyasini amalga oshirish shart-sharoitlarini belgilashga bog'liq.

Ushbu dolzarb vazifaning yechimiga bag'ishlangan kurs ishimizda o'quvchilarning aqliy tarbiyasi va ularda dunyoqarashni shakllantirish tizimini tadqiq etish **tadqiqot maqsadi** qilib belgilangan.

**Tadqiqot obyekti:** Boshlang'ich sinflarda aqliy tarbiya berish jarayoni

**Tadqiqot predmeti:** O'quvchilarning aqliy tarbiyasi va ilmiy dunyoqarashlar tizimini shakllantirish shakl va metodlari.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Mavzuga oid ilmiy, o'quv adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlarini tahliliy o'rganish;
1. O'quvchilar aqliy tarbiyasining mohiyati va mazmunini yoritish
2. Kichik maktab o'quvchilarining o'qish faoliyati xususiyatlarini o'rganish
3. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyatini aniqlash
4. O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning shakl, metod va vositalarini belgilash

## ASOSIY QISM:

### **1. O'quvchilar aqliy tarbiyasining mohiyati va mazmuni**

O'zbekiston mustakilligi tufayli mamlakatimiz xayotida katta o'zgarishlar ro'y bermokda. Mustakillik sharofati bilan milliy kadriyatlarimiz kayta tiklanib, buyuk allomalarimiz-Axmad Yassaviy, Nakshbandiy, al-Buxoriy, Amir Temur, Ulugbek kabi aql-zakovatli, buyuk siymolarning xayoti va faoliyatiga bo'lgan kizikish ortib bormokda. Mustakillik tufayli o'zbek xalkining aql-idroki, milliy urf-odatlarini, ayniksa ma'naviyatimizning asosi bo'lgan insoniy fazilatlar kayta tiklanmokda. Yangi adolatli jamiyat kurish uchun ta'lim-tarbiya soxasi haqidagi bilimlar chukurlashtirilmokda.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov "Fidokor" gazetasi muxbirining savollariga "Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman" mavzusidagi javoblarida: "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy kadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor karatadi. Bu jarayon milliy istiklol goyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga asoslanadi",- degan edilar (iyun, 2000).

Insonni ulug'lash, uning kadriga yetish, ayniksa o'sib kelayotgan yosh avlodni aql-idrokli, odobli kilib tarbiyalash, ularni kamolotga yetkazish soxasida Respublikamizda bir kancha ishlarni amalga oshirmokda.

Dunyo, inson, aql-zakovat, ma'naviyat- bular bir-biri bilan chambarchas bog'likdir. Dunyo bunyod bo'libdiki, inson dunyo yuzini ko'ribdiki, o'zini inson sifatida anglabdiki, u o'zini borlikning eng mukammal mavjudoti sifatida aql-zakovati bilan tanib keladi. Inson ongi, tafakkuri va ma'naviyati tufayli shunday ustunlikka egadir. Inson dunyoga ma'lum bir maksad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng xayotda yashashdan ma'no izlaydi va bu narsa uning xayoti mazmunini tashkil etadi. Insonlar bor, dunyoga keladilaru ketadilar, ulardan nom-nishon kolmaydi, xayotning ma'nosiga, kadriga yetmaydilar. Insonlar bor - mana shu kelishi bilan ketishi o'rtasidagi "umr" deb atalmish vaktga chakmokday chaknab, o'zlarining yorkin izini koldiradilar. Bu iz o'chmasdir. Mana shunday aql-zakovati bilan o'zidan keyin yaxshi ot koldiruvchilar ma'naviy yuksak

insonlardir. Ma`naviy komil insongina shunday yuksaqlikka, avlod-ajdodlar kalbida zamonlar osha, asrlar osha yashashday sharafga sazovordir.

Demak, inson o`z xayoti va faoliyatini mazmunli o`tkazish uchun avvalo o`zini o`rab turgan borlikni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo`lishi lozim. Chunki inson aqli va uning xayotida muxim o`rin tutishi, aql-idrok tufayligina inson donolik, teran fikr, rostgo`ylik, to`grilik, uzokni ko`ra bilish, nafsning ko`yiga tushmaslik kabi xususiyatlarni amalga oshirishi mumkin. Xalkimizning “Akl insonning ko`rki”, “Akl suvdan tinik, oynaday ravshan” kabi naqllar bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham aql inson uchun goyat oliy ne`matdir. Akl bilan ilm-ma`rifat egallanadi, kasb hosil kilinadi, dunyo sirlari o`rganiladi. “Akl- yurak ichidagi nur, bu nur bilan haq yoki nohaq bilib olinadi”, “Akl o`z soxibini dunyo malomatlaridan kutkaradi”, “Akl- jonning xayoti, jon esa jasadning xayoti, tan esa jasadning xayoti!”, “Kishining nafsi aqldan ustun bo`lsa, unday odamning xayvondan farqi yo`k“.

Akl kishining o`z irodasi, kalbi va fikri asosida dunyoviy, xayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o`z faoliyatida ma`naviy-insoniy nuqtai-nazardan amal kilishdir.

Akl insonlarning piri komili, murshidi, yagonasidir. Rux ishlovi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din va e`tikodni maxkam kiladi, shariat xukmlariga bo`ysunadi. Insonlarning do`sti uning aqlidir. Dushmani esa uning nodonligidir. «Ollox eng gazab kilgan kishi axmokdir. Chunki u eng aziz narsadan maxrumdir». Inson aqli tufayli yaxshilik bilan yomonlikni ajratadi. Olimlarning fikricha, aql ikki turli bo`ladi.. Insonni xayvondan ajratib turadigan tugma aqli Tabiiy va kasbiy bu tabiiydir. Inson tabiatdagi aqlni o`tkirlash va o`stirish faoliyati bu kasbiydir. Bu esa aqlni ishlatish, tajriba va ilm olish bilan hosil bo`ladi. U aqlni rivojlantirish uchun ham har bir kishi xayotdan tajriba orttirishi va ilm-ma`rifat o`rganishi zarur, har kimki, aqlga oshno bo`lsa, u jamiki ayblardan poklanadi, haqiqatni, anglab, kamolotga yetadi.

Abu Nasr Forobiy yozadi: “Aklli deb shunday kishini aytamizki, unda o`tkir zexn, idrok bo`lishi bilan birga u fazilatli ham bo`lsin. Bunday kishi o`zining butun kobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o`zini

saqlashga va tortishga karatgan bo`lmogi lozim. Shunday odamnigina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin”.

Bolalarning aqlli bo`lishida oila, maktab, keng jamoatchilikning ta`siri kattadir. Aklli bolalar kayerda bo`lmasinlar doimo ehtiyotkorlik bilan bilim va tarbiyali ekanligini namoyish etadilar. Ularni ko`rgan, suxbatida bo`lgan kishilar aqliga taxsin kilib raxmat aytadilar. Shu o`rinda 1447 yili Taft shaxrida 5-6 yoshli Alisherning mashxur olim, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo`lgan uchrashuvini misol sifatida keltirish maksadga muvofikdir.

Bola mo`ysafidning savollariga burro javob berar edi. Uning o`zini tutishi, odobi mo`ysafidga yokib tushdi.

-Men chakirganimda o`rtoklaring kochib ketdi. Sen esa xuzurimga kelding, so`roklarimga yaxshi javob berding. Shuning uchun senga raxmat, umring uzok bo`lsin, boshing omon bo`lsin. Olim, fozil, bo`lib, yaxshi obro`ga erishgaysan, – mo`ysafid uni duo kildi.

Bundan ko`rinib turibdiki, aqlli bolalar hamma joyda kamolu-ta`zim bilan salom beradilar. Odob bilan munosabatda bo`ladilar.

Haqiqatdan ham, aqlni ishlatgan kishi xayotida fakat ezguliklar kiladi va ezgulik ko`radi.

Lekin shuni aytish joizki, aql, zakovat jixatdan yetuk bo`lmagan inson xech kachon o`z Vatanini, o`z xalkini, o`z dinini, eng asosiysi o`zligini anglay olmaydi, o`zligini anglamagan inson esa mankurtga aylanib koladi. Bu esa ertangi porlok kelajagimizning xalokatidir. Bizning bu boradagi eng asosiy vazifamiz yoshlarni ma`naviy barkamol, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, yurt istikboli uchun kayguradigan komil insonlarni tarbiyalashimiz, ularni kamol toptirishimiz zarur.

Zero, yurtboshimiz I.A.Karimov aytganidek: «Ilm, ma`rifat biz uchun bugun ham o`z ahamiyatini yo`kotgani yo`k, yo`kolmaydi ham. Akl-zakovatli, yuksak ma`naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina oldimizga ko`ygan maksadlarimizga erisha olamiz». Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganlaridek, yurtimizda farovonlik va tarakkiyot karar topadi. Shuning uchun ham komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor soxasi deb e`lon kilganmiz.

Komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustakil fikrlay oladigan, xulkatvori bilan o`zgalarga ibrat bo`ladigan bilimli, ma`rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-kochdi gaplar bilan aldab bo`lmaydi. U har bir narsani aql, mantik tarozusiga solib ko`radi, o`z fikri, o`yi, xulosasini mantik asosida kurgan kishi yetuk odam bo`ladi.

Darhaqiqat, ilm-ma`rifatlilik kuch-kuvvat manbai, kalbga nur, o`ziga ziyo bagishlaydigan buyuk ne`matdir. Shu sababli ham inson xayotda kunt bilan ilmni o`rganishi tufayli aql-zakovati yuksaladi, baxtli xayot uchun kurashadi.

Bizga ma`lumki, inson xayoti uchun muxim bo`lgan ilm xikmatlarini o`rganishda ota-bobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga ko`rsatgan gamxo`rlilari bekiyosdir.

Xalkimiz orasidagi kuyidagi o`gitlar insonlarni ilm-ma`rifatga da`vat etuvchi buyuk kuchdir.

Inson uchun aql, eshik ochuvchi, axloqiy yo`l ko`rsatuvchidir. Yetuk axloq va odob insonning ziynati, donolarning fazilatidir. Aklli kishi axloqli bo`lsagina, xalkiga, mamlakatiga, yoru do`stlariga naf keltiradi. Alisher Navoiy o`zining aqli, ibratli axloqi, odobi bilan mamlakatiga, xalkiga xech kachon so`nmaydigan buyuk meros koldirdi. U o`zi xayot bo`lgan davrlardayok, aqli va axloqi bilan xalkiga, mamlakatiga ko`p foyda keltirdi, do`sti Sulton Xusayn Boykaroga davlatni adolat mezonlari asosida boshkarishga yordamlashishga intildi. Navoiyning dono maslaxatlari tufayli u ko`p falokatlarni oldini oldi, xalokatlardan kutulib koldi.

Akl – insonning epchillik, bunyodkorlik, insonparvarlik sifatlari majmuasidan iboratdir.

Abdulla Avloniyning yozishicha, aql-idrokning tantana kilishiga ishonmok lozim. Chunki, "Akl insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur, Rux ishlovchi, aql boshkaruvchidir. Inson aqli ila din va e`tikodini maxkam kilur, shariat xukmlariga buysunur"...

Rasuli Akram nabiiy muxtaram salloloxu alayxi vassalam shunday deganlar: "Ey insonlar! Aklingizga ta`voze kilingiz, Siz janobi haq buyurgan va kaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz".



Allomalardan biri: “Agar aqlingni kuli nafsingni jilovini ushlasa, seni yomon yo`llarga kirmokdan saqlar, har narsa ko`p bo`lsa, baxosi arzon bulur, aql esa ilm va tajriba soyasida kancha ko`paysa, shuncha kimmatbaxo bulur”, demish.

Insonda nima asosiy rol o`ynaydi, aqlmi yoki odob degan savol ham ko`yilishi mumkin. Ularning ikkalasi ham muxim. Ikkalasini o`zida jamul-jam kilgan kishini barkamol inson, deb ayta olamiz. Xayotda bilimli, aqli ham joyida aziz, aql va odob kishilarni kalban bir-biri bilan boglaydigan ruxiy zamin desak ham xato bo`lmaydi. Donolar aytganidek: ”Kishida odob bo`lsa, ilm ham bo`lishi mumkin. Odob aqlga boglik narsa. Akl ustiga odob ko`shilsa, nur ustiga nur bo`ladi. Uluglik-aqlu odob bilan, boylik kadri saxovat bilan, kuvvat kadri baxodirlik bilan oshadi”.

Akl va odobning uzviy birlikda ekanligini bir muloxaza kilib ko`raylik. Akl, idrokka nisbatan dastavval kishining xulk-atvori ko`zga tashlanadi. Psixologlarning fikricha, birinchi taassurot shunchalik kuchliki, u bundan keyingi tasavvurlarga zamin bo`ladi. Ammo har doim ham shunday bo`lavermaydi. Oldin ko`z ma`kullaydi. Mexr ko`zda, degan gap bor xalkimizda.

Kishining aql-idroki bo`lmasa uning odobi yuzaki, sun`iy bo`ladi. Uning odamligini bilib turasiz, u odamiyligi va odamligining yo`kligidan nafratlanasiz. Xalkimizning o`zi chiroyligu so`xtasi sovuk, o`zi xunugu istarasi issik degan naqlari ham shu ma`noni beradi. Zukko odamning kalbi odatda pok bo`ladi. Kobiliyatsiz, xulk-atvori bekaror odamlarning yomon yo`llarga kirib ketishi xech gap emas. Odocsiz talabalarni ko`z oldingizga keltiring, o`zi talaba, ammo kilayotgan xatti-harakatlari gayri insoniy tarzda ko`pchilik ichida o`z xurmatini yo`kotadi, o`kibdi-yu, ukmabdi, degan ibora xuddi shundaylarga nisbatan aytilgan.

Insonlarning bilimi kanchalik keng va chukur bo`lsa, u shunchalik kamtar bo`ladi. Kamtarlik-donolikning belgisidir. Dono kishilar bilganlaridan ko`ra bilmaganlari ko`p ekanini tasavvur eta oladilar. Buyuk faylasuf Sukrotning: “Men bir narsani bilaman, u ham bo`lsa- xech narsani bilmasligimdir”,-degan fikrlarida ham shu ma`no bor. Fakat nodon kishilargagina o`zlari bilgan bilim haqiqatning so`nggi chegarasidek bo`lib ko`rinadi.

Kishilarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat tarakkiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilarda ilm, fanni o'rganishga, xalol mehnat kilib xunar -kasbni egallashga, malaka oshirishga ehtiyojlari ham bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat tarakkiyotining barcha boskichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berganlar. O'zbek milliy pedagogikasidagi ta'lim-tarbiya ishlari tizimida ham axloq va aql tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

Ma'rifatparvar alloma A.Avloniy inson aql-zakovati va ma'naviy kamolotining yo'llari ustida to'xtalib, shunday deb yozadiki: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun goyat mukaddas bir fazilatdur, zero ki, ilm bizga o'z axvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zexnimizni, fikrimizni kilich kabi o'tkir kilur, ilmsiz mevasiz daraxt kabidur".

U ilmning ahamiyatini nazariy tomonini ko'rsatibgina kolmay, balki amaliy faoliyat uchun xayotiy zarurat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi: "Ilm bizni jaxolat karongusidan kutkarar, madaniyat, insoniyatni ma'rifat dunyosiga chikarur, yomon fe'llardan, buzuk ishlardan kaytarur. Yaxshi xulk odob soxibi kilur. Butun xayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarovatimiz, mayishatimiz, ximmatimiz, gayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga boglikdur".

Akl-zakovat, ehtiyoj ham ob'ektiv zaruriyatni ongli tushunish bilan boglik bo'lgan ma'naviyatdir, ya'ni anglagan maksadlar tizimidir. Binobarin, har bir davrning ehtiyojlari ham, ijtimoiy, iktisodiy tarakkiyoti ham ilmiy tafakkuri saloxiyati darajasi bilan belgilanadi. Biror muammoni xal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniklaydi.

## **2. Kichik maktab o'quvchilarining o'qish faoliyati.**

O'quv jarayoni I sinf o'quvchilarini o'ziga jalb qiladi. Chunki o'quv faoliyatida zavqli o'quvchi bo'lish, maktab talablarini ado etish maroqlidir. So'ngra o'qish jarayonining o'ziga bo'lgan qiziqishi o'qish samarasiga ko'chadi. O'qituvchi bolalarning muayyan maqsadga qaratilgan faoliyatga qiziqishlarni rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida o'quv amalarini o'qituvchi tomonidan nazorat

qilib borilishi o'quvchini o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi va o'qish faoliyati motivi muayyan bir maqsadga aniq yo'naltirilmagan bo'lsa, 3–4 sinf o'quvchilarining o'quv motivlari aniq bir maqsadni ko'zlashga qaratiladi. Ular nima uchun yaxshi o'qish, bilim olish, a'lochi bo'lishning motivlarini his qiladi. Ular yaxshi o'qisa, bilim olsa kelgusida, muxandis, o'qituvchi, shifokor bo'lishini biladi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish ekanligini tushungan o'quvchi muhim ijtimoiy vazifa – o'qish, bilim orttirish vazifasidan iborat ekanligini bilib oladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir.

Bolaning maktabga kirishi bilan butun hayot tartibi, ijtimoiy holati, jamoadagi, oiladagi ahvoli keskin o'zgarib ketadi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish bo'lib qoladi. Muhim ijtimoiy vazifa – o'qish bilim orttirish vazifasidan iborat bo'lib qoladi.

Bolaning maktab o'quvchisi bo'lishi uning hayotida “burilish”ni yuzaga keltiradi. Uning asosiy faoliyati, birinchi va eng muhim vazifasi o'qish, ya'ni yangi bilimlarni, ko'nikma va malakalarni ortirishdan, tabiat hamda jamiyat haqida sistemali ma'lumotlar to'plashdan iborat bo'lib qoladi. O'z – o'zidan ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga nisbatan yuksak javobgarlik munosabati birdaniga tarkib topib qolmaydi. Bunda anchagina individual farqlar kuzatilsa ham o'qishga bo'lgan munosabatlar va motivlarining rivojlanish dinamikasi odatda qonuniy xarakterga ega bo'ladi. Yetti yoshli bolalar ta'limning boshlang'ich davrida maktab mashg'ulotlarining yaqin kelajakdagi istiqbollari ijobiy idrok qiladilar. Bolalarda hatto xarakterli xususiyatlarni jixatlardan farq qiladigan o'ziga hos ehtiyoj ham paydo bo'ladi. Bu aslida hali o'qishga bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj emas, biron yangi narsani, tevarak- atrofdagi voqyelik hodisalarni bilishga bo'lgan ehtiyojdir. Bu ehtiyoj o'zining kichkina bolalik xolatini o'zgartirish, mustaqillikning navbatdagi bosqichiga ko'tarilishi, oilani katta va ish bilan band a'zosi bo'lishi istagidir. Bunda o'qishning tashqi belgilari yangi forma kiyish hoxishi, o'z shaxsiy papkasiga ega bo'lish, mashg'ulotlar uchun o'z joyiga ega

bo'lish, kitoblarini qo'yish uchun javonchaga ega bo'lish xuddi otasi yoki onasi ishga borganlaridek har kuni maktabga borish xohishi katta ahamiyatga ega. Shu bilan kichkina bolalar ko'zi oldida yuksaklikka ko'tarilishdek yoqimli istiqbol ularni maftun etadi. Maktabga bo'lgan bunday munosabatning mustahkamlanishiga ikkinchi sentyabrdagi tantanali bayram sharoiti maktab o'quvchisi degan nom berish an'anasi ham anchagina yordam beradi.

Bola hali maktabga bormasdan oldinoq, ya'ni oiladan va bog'chada ijtimoiy hayotimizning turli sohalari bilan, ayniqsa maktab hayoti, ularning xilma-xil faoliyatlari bilan tanishadi va unda yuksak ijtimoiy qiziqish-havas kurtaklari paydo bo'la boshlaydi.

Bola maktab yoshiga kirib maktab borishga, o'quvchi bo'lishga g'oyat darajada qiziqadi. Bu uning gap-so'zlaridan va qilayotgan harakatlridan ham ko'rinib turadi. Shu kezlari bola maktab va maktabda o'qish uchun kerak bo'ladigan narsalar to'g'risida ko'proq gapiradi. Sumka, "Alifbe", qalam, daftar va sanoq cho'plarini tezroq tayyorlab qo'yish ustida ko'proq bosh qotiradi. Shu bilan birga u o'zining to'plagan o'quv qurollarini nihoyatda avaylab sumkasiga solib, qayta-qayta sumkasidan olib ko'rib, bularni maktabga ko'tarib borishga oshiqadi va bunga juda ham havas qiladi. Biroq o'qishga bo'lgan dastlabki bunday havas uning tabiatga xos bo'lgan "Bu nima?" tarzidagi tekshirish refleksi asosida yuzaga keladigan faoliyatdan iborat bo'lsa ham, lekin ularda ko'rina boshlagan bunday qiziqish-havas talim-tarbiya jarayonida takomillasha boradi. O'qish bo'lsa - boladan ma'lim uyushqoqlikni, intizomlilikni, anchagina irodaviy zo'r berishlikni talab qiladigan jiddiy mehnatdir.

Maktab ta'limining birinchi kunidan boshlab kichik maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch bo'lgan asosiy qarama - qarshilik yuzaga keladi. Bu qarama - qarshilik bola shaxsiga, uning diqqati, xotirasi, tafakkuriga nisbatan o'quv ishlari, o'qituvchilar hamda jamoa tomonidan qo'yilayotgan va doimo orttirib borayotgan talablar bilan o'quvchining mavjud psixik rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Talablar hamma vaqt o'sib boraveradi va bolaning mavjud psixik rivojlanish darajasi ana shu o'sib

borayotgan talablarga tenglashishga to'xtovsiz ravishda intilaveradi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu turdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari: bu aqliy taraqqiyot va o'quvchanlikning bir muncha orqada qolishidir. N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra inson yoshi ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi bir muncha ko'tariladi, uquvchanlik esa bir muncha pasayadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning uquvchanligi albatta o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarining ta'siroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat, irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsa bilan shug'ullanish, diqqatni taqsimlash, o'z xulqini idora qilish ekanligini anglaydi. Shunday aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday xolning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'limotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining aynan o'ziga qiziqish ko'zga tashlanadi. Psixolog olimlar o'tkazgan maxsus tadqiqotlarda bolalar bilan keraksiz mashqlar o'tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar keyinchalik kerak bo'lmasligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajarishga kirishganlar. O'quvchi shaxsiy faoliyatida erishgan dastlabki yaxshi natija uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat maxsuli shodlik va quvonch his-tuyg'usini keltirib chiqaradi.

Masalan: ayrim o'quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o'qishga harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish, uning mazmuniga ham qiziqishini

vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxs shakllanishida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash va unda o'qishga ijobiy munosabatni shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. 7 yashar bo'lgan bolalardagi maktabga, o'qishga bo'lgan bu xildagi dastlabki qiziqish – havaslar, asosan ulardagi ixtiyorsiz diqqat prosessida ro'y beradigan bevosita qiziqish – havaslardir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda keyinroq borib o'z diqqat –e'tiborini muayyan bir narsaga, voqyelik va hayotning ma'lum bir sohasiga, ma'lum bir faoliyatga birmuncha uzoq vaqt va barqaror qaratilishida ifodalanadigan bivosita qiziqishlar sekin- asta yuzaga kela boshlaydi.

Dars jarayonida va darsdan tashqi mashg'ulotlarda o'quvchilar tevarak – atrofdagi narsa va hodisalarni kengroq tushunib boradilar. Har xil narsalarga qiziqqa boshlaydilar, ularning qiziqishlari borgan sari takomillashib, barqaror tus ola boradi. Endi maktab o'quvchilarini tevarak – atrofdagi ayrim hodisalargina emas, balki o'sha hodisalarning sodir bo'lish sabablari ham ko'proq qiziqtira boshlaydi. Shuning uchun ham bu davrda bola tomonidan beriladigan har xil “Nega bunday?”, “Nimadan qilingan?”, “Bu nima uchun kerak?” singari so'roqlar yanada ko'payib ketadi.

Bolada ta'lim-tarbiya jarayonida ko'proq narsalarni bilib olishga, yuqoriroq baholarga erishishga muayyan darajada ehtiyoj va zarurat paydo qilish kerak. Shundagina u o'zidagi buday talabni qondirishga harakat qiladi va aktiv faoliyat ko'rsatadi. Dars materiallarini bilib olishga, o'qituvchining topshiriqlarini yaxshilab bajarishga intiladi. Buning uchun esa bolani muayyan kun tartibiga odatlantirish va doimo dars tayyorlashga o'rgatish lozim. Shundagina u o'qishda muayyan daraja muvaffaqiyatlarga erisha oladigan bo'ladi va unda o'qishga havas uyg'onadi.

O'qishning dastlabki kunlarida bolalar sinfdagi dars mashg'ulotlariga juda ham qiziqadilar. Ularni ko'proq rasm chizish, yozish, doskaga chiqish, qo'l ko'tarib o'qituvchi savollariga javob berish singari ishlar qiziqtiradi. Keyinroq

borib ular faqat darsdagi mashg'ulot jarayonining o'zigagina emas, balki mashg'ulotlarning mazmuniga ham qiziq boshlaydilar. Shu kezlari bola o'zining sinf va uyida bajarib kelgan ishlarini, yozma narsalarni o'qituvchiga tezroq ko'rsatishga oshiqadi. O'qituvchining o'quvchi bajargan vazifani og'zaki maqullashi ham uni g'oyatda quvontiradi.

Bolalarning bu xususiyatlarini yaxshi bilgan mohir o'qituvchilar e'tiborini ko'proq yozishga va berilgan topshiriqlarni tezroq bajarish lozim ekanligigagina emas, balki topshiriqlarni sifatli qilib bajarish, to'g'ri va chiroyli qilib yozish kerakligiga ham jalab etadilar hamda topshiriqlarni yaxshilab bajargan, to'g'ri va chiroyli yozgan o'quvchilarni o'z vaqtida rag'batlantirib boradilar. Natajada o'quvchilar sekin-asta dars mashg'ulotlarining mazmuniga qiziqadigan va ularni sifatli qilib bajarishga harakat qiladigan bo'lib qoladilar. O'quvchilar o'qituvchilarning "yaxshi yozibsiz", "to'g'ri bajaribsiz", "barakalla" singari og'zaki ma'qullashigagina emas, balki uning o'zlarining daftarlarga qo'yib beradigan baholariga ham qiziq boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda o'qishga qiziqishning ortib borishida ularning o'z bilim va tushunchalarning takomillashib borayotganligini sezib borishlar, o'z imkoniyatlarining o'sib borayotganligini tushunishlari katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, maktablarda bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho ta'sirida o'z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto, o'quvchi dastlabki paytlarda "yaxshi" yoki "yomon" bahoning farqiga ham bormaydi, uni ko'proq nechta baho olgani qiziqtiradi. O'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun eng muhim ahamiyatga ega.

Ko'pchilik mutaxassis olimlar kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlariga olib keladi deb hisoblaydilar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimning ijobiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. shunga ko'ra bilimni tekshirishning boshqa usullarini topish hamda qo'llash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning olgan baholariga kattalarning munosabati ham ularning o'qishga qiziqishlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, o'quvchining olgan baholariga o'qituvchi va ota-onalarning beparvolik bilan qarashlari undagi o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchilar va ota-onalarni bolalarning oladigan baholariga alohida e'tibor berishlari, ular olgan yuqori baholarini ma'qullab turishlari va harakat qilinsa, hamma fanlardan ham yuqori baho olish mumkinligini aytib, ularni rag'batlantirib turishlari juda muhimdir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xilma – xil qiziqishlar bilan birga individual qiziqishlar ham tug'ila boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlik ishlariga ko'proq qiziqsalar, boshqalari musiqaga yoki she'riyatga muhabbat qo'yadilar. Shuningdek, ayrim o'quvchilar matematika yoki texnikaga qiziqsalar, ba'zilari ona tili yoki tibbiyotni yaxshi ko'radilar. Bulardan tashqari, ayrim o'quvchilarda har – xil kasblarga bo'lgan individual qiziqishlar ham ko'rina boshlaydi. Lekin bu yoshdagi o'quvchilarning orzu – havaslari hali tez – tez o'zgarib turadigan bo'ladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, ba'zi o'quvchilardagi ayrim narsalarga bo'lgan qiziqish umrbod saqlanib qolmog'i ham mumkin. Muayyan va doimiy qiziqish – havaslar o'quvchilarda asosan ayrim o'smirlik davrida tarkib topib borayotgan ideallar bilan bog'liq ravishda vujudga keladi va o'sadi.



### **3. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati**

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta

o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

### **Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati.**

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

### **Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:**

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

5. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi **belgilarga** ko'ra aniqlanishi mumkin:

- Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
- Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
- Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
- Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea»- g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli

sanalib, ijtimoiy voqyea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi. Chunonchi, «... ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilm-u ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu olijanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug' kunlarga erishishi muqarrar».

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual

va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi»<sup>2</sup>. Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi»<sup>1</sup>.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordi-yu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmandlik deyildi».

Yusuf Xos Hojibning «**Qutadg'u bilig**» («**Saodatga boshlovchi bilim**») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi.

Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,  
Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to'xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilar, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur». Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur».

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-

munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'smir hamda o'spirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning g'oyalariга nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko'rishga undash ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqyea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan o'qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o'quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda

ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko'rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o'rin tutgan mafkuraviy g'oyalar va ularning mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e'tirof etilgan milliy istiqlol g'oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma'lumotlar berib borish, ularga nisbatan o'quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo'l hisoblanadi.



## Xulosa

Madomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo`l: tajriba va mantiq (aql) yo`li bilan bo`lar ekan. Demak, kishi hayot to`g`risidagi, o`tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o`zi to`plagan shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog`i kerak. Kishilarning ongi ularning borligini emas, aksincha moddiy hayot sharoitlari, ya`ni borligi ularning ongini belgilashligi, Shundan dalolat beradi. Shu bois ilmiy dunyoqarash hammaga ham nasib qilaveradigan oddiy hodisa bo`lmay, kishining nazariy va amaliy bilim darajasiga bog`liqdir.

Biroq, aqliy jihatdan sog`lom odam agar kam bilsa ham ko`p o`qishi, o`rganishi natijasida o`z bilimini oshirishi, bilimlilarga etib olishi va ma`lum darajada ilmiy dunyoqarashni shakllantira olishi mumkin. Aql va bilim tajriba orqali qo`lga kiradi. Demak, bilimli odam aqlli, mulohazali ham bo`ladi.

Biroq, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda gen (zot) ning ham juda ahamiyati katta. Oldingi yevropalashtirilgan ta`lim va tarbiya uslubimizda qilingan xatolardan eng buyugi, bizningcha, zotga e`tibor bermaslik bo`lib, biz ta`lim oluvchining qobiliyatiga, uning zotiga e`tibor berib o`tirmay, agar yetarli bilimni bersak kutilgan shaxs shakllanaveradi, deb o`ylashimiz kerak edi.

Tabiat, jamiyat va tafakkur sohasidagi fanning barcha jabhalarida insoniyat tomonidan ming yillar davomida yaratilgan va to`plangan bilimlardan hech bo`lmaganda boshlang`ich ma`lumotlarga ega bo`lmay turib, chinakam ilmiy dunyoqarash to`g`risida gap bo`lishi mumkin emas. Kishi dunyoni qay darajadagi bilim asosida bilsa, dunyoqarashining chuqur va sayozligi ham shu darajada bo`ladi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda badiiy adabiyotning, xalq og`zaki ijodining, ertaklarning, hikoya va qissalarning ahamiyati katta:

Masalan: "Hadis"larda, "Kalila va Dimna", "Qobusnoma", "Ming bir kecha" va boshqalarda hissiy va mantiqiy bilishga tegishli matallar, ertaklar, hikoyalar, baytlar ko`p bo`lib, yoshlarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o`rin tutadi.

Dunyoqarash insonda ma`lum mas`uliyat hissi bo`lishini ham talab qiladi. Masalan, qo`zini yeb qo`ygani uchun bo`rini qora kursiga o`tkazib, sud qilib o`tirilmaydi, to`g`ridan to`g`ri otib tashlanaveradi, chunki uning ongi yo`qligi tufayli mas`uliyati ham yo`q, u qilishi mumkin bo`lgan ishni qilgan. N`yurinberg jarayonida jahon jamoatchiligi gitlerchi fashistlarni sud qilganlarida tamomila haqli edi. Chunki, ular mas`uliyatni o`ylamay insoniyat boshiga katta kulfat soldilar.

Bozor iqtisodiga o`tish mamlakat ertami-kechmi bosib o`tishi shart bo`lgan yo`l ekanligini, unga 10-15 yildan tortib, xatto 100 yillar davomida o`tilganligini, hozirgi rivojlangan kapitalistik mamlakatlar Angliya, Fransiya, Germaniya va hatto AQSH dan ham xalq uchun zarur bo`lgan keng iste`mol mollari belgilangan narxda, qat`iy ravishda davlat do`konlarida sotilishligini bilish bu bilan chayqovchilik qilganlar qattiq jazolanishi ham dunyoqarash darajasini ko`rsatuvchi omillardandir.

Kelajagi buyuk davlatni barpo qiluvchi mamlakatning butun aholisi faqat tijorat, din, qiroat, oldi-sotdi bilangina shug`ullanavermasdan eng avvalo ishlab chiqarishni, ilm-fanni rivojlantirishi, dunyo tillarini bilishi, umuman ma`rifatga birinchi darajali e`tibor berish tufayligina ko`tarilish mumkinligini tushunish ham dunyoqarashni shakllantirishga kiradi.

O`zbekiston Prezidenti I. Karimovning bozor iqtisodiga o`tishda O`zbekistonning o`z taraqqiyot yo`li borligi haqidagi 5 tamoyilini bilish ilmiy dunyoqarashni muhim elementidir. Bular: 1) iqtisodning siyosatdan ustun bo`lishligi; 2) Iqtisodni boshqarishda davlat asosiy isloxotchi bo`lishi; 3) qonunga hammaning itoat qilishligi; 4) kuchli ijtimoiy siyosat yurguzib, aholini kam ta`minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish; 5) Bozor iqtisodiga o`tishda shoshma-shosharlikka yo`l qo`ymay bosqichma-bosqich o`tish kabilardir.

Ilmiy dunyoqarashni amalga oshirishda kishi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning ko`rinib turgan ifodasiga, shakliga qarab emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga qarab baho berish kerak.

Shunday qilib, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bir, ikki, uch kishi yoki bir necha guruh tomonidan bo`lmay, balki ko`pchilik, ijtimoiy fikr tomonidan bajariladigan ijtimoiy-tarixiy harakterdagi hodisadir. Demak, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kishidan ko`p mehnat, malaka talab qiladigan murakkab, sarmashaqqat faoliyat sohasidir.

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori. T., 1997
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Sharq, 2008.
4. Levantuyev P.I., Asqarxo'jayev A., Chudnovskiy V.E., Vohidov M.V. Bolalar psixologiyasi ocherklari. T., "O'qituvchi", 1964
5. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T., 2004
6. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiya. T., 1998
7. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., 1991
8. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., "O'qituvchi", 1970
9. G'oziyev E. Psixologiya. T., "O'qituvchi", 1994
10. Kruteskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., "O'qituvchi", 1976
11. Karimova V. Va boshqalar. Mustaqil fikrlash. T., "Sharq", 2000

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.referatlar.uz](http://www.referatlar.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)

---